Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 11 2026

MALAKALI YURIDIK YORDAM KO’RSATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Omonjonova Fotimaxon

Toshkent davlat yuridik universiteti Advokatlik faoliyati yo’nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada malakali yuridik yordam ko’rsatishning ilmiy-nazariy asoslari, uning huquqiy tabiati, konstitutsiyaviy kafolatlari va asosiy prinsiplari tadqiq etiladi. Malakali yuridik yordamning inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi o’rni, advokatura institutining ushbu jarayondagi ahamiyati hamda davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ‘‘Davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish to’g’risida’’gi Qonun va ‘‘Yuridik yordam’’ axborot tizimining mazkur sohadagi o’rni, advokatlarni elektron tanlash, yuridik yordam sifatini nazorat qilish hamda uning samaradorligini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratiladi. Xalqaro huquqiy standartlar va milliy qonunchilik qiyosiy tahlil qilinib, malakali yuridik yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so’zlar: malakali yuridik yordam, advokatura, inson huquqlari, huquqiy himoya, davlat hisobidan yuridik yordam, advokat mustaqilligi, advokatlik siri, yuridik yordam sifati, konstitutsiyaviy kafolatlar, ‘‘Yuridik yordam’’ axborot tizimi, elektron tanlov, xalqaro huquqiy standartlar.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF PROVIDING QUALIFIED LEGAL ASSISTANCE

Fotimakhon Omonjonova

Tashkent State University of Law First-year Master's Student in Advocacy

Annotation. This article examines the scientific and theoretical foundations of providing qualified legal assistance, its legal nature, constitutional guarantees, and fundamental principles. It analyzes the role of qualified legal assistance in protecting human rights, freedoms, and legitimate interests, the significance of the advocacy institution in this process, and the organizational and legal mechanisms for providing state-funded legal aid. Particular attention is paid to the Law of the Republic of Uzbekistan "On Legal Aid at State Expense" and the role of the "Legal Aid" Information System, including the electronic selection of advocates, monitoring the quality of legal assistance, and ensuring its effectiveness. International legal standards and national legislation are comparatively analyzed, and scientific and theoretical conclusions and proposals aimed at improving the system of qualified legal assistance are presented.

Keywords: qualified legal assistance, advocacy, human rights, legal protection, state-funded legal aid, independence of advocates, advocate-client confidentiality, quality of legal assistance, constitutional guarantees, "Legal Aid" Information System, electronic selection, international legal standards.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОКАЗАНИЯ КВАЛИФИЦИРОВАННОЙ ЮРИДИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ

Омонжонова Фотимахон

Ташкентский государственный юридический университет Магистрант первого курса направления ‘‘Адвокатская деятельность’’

Аннотация. В статье исследуются научно-теоретические основы оказания квалифицированной юридической помощи, её правовая природа, конституционные гарантии и основные принципы. Анализируется роль квалифицированной юридической помощи в защите прав, свобод и законных интересов человека, значение института адвокатуры в данном процессе, а также организационно-правовые механизмы предоставления юридической помощи за счёт государства. Особое внимание уделяется Закону Республики Узбекистан ‘‘О юридической помощи за счёт государства’’ и роли информационной системы ‘‘Юридическая помощь’’, в том числе вопросам электронного отбора адвокатов, контроля качества юридической помощи и обеспечения её эффективности. Проводится сравнительный анализ международных правовых стандартов и национального законодательства, формулируются научно-теоретические выводы и предложения, направленные на совершенствование системы оказания квалифицированной юридической помощи.

Ключевые слова: квалифицированная юридическая помощь, адвокатура, права человека, правовая защита, юридическая помощь за счёт государства, независимость адвоката, адвокатская тайна, качество юридической помощи, конституционные гарантии, информационная система ‘‘Юридическая помощь’’, электронный отбор, международные правовые стандарты.

KIRISH

Bugungi kunda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda malakali yuridik yordam ko’rsatish instituti alohida ahamiyatga ega. Chunki shaxsning o’z huquqlarini bilishi, ulardan foydalanishi va buzilgan huquqlarini tiklashi ko’p jihatdan professional yuridik yordamning sifati va samaradorligiga bog’liq.

Malakali yuridik yordam ko’rsatishning ilmiy-nazariy mohiyatini ochib berishda advokatura institutining konstitutsiyaviy maqomi va uning inson huquqlarini himoya qilishdagi o’rnini o’rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada yuridik fanlar doktori, professor Foziljon Otaxonov advokatlik faoliyatiga oid qonunchilik normalarini konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan tahlil qilib, advokatura institutining mustaqilligi, malakali yuridik yordam olish huquqi va mulk shakllarining tengligi masalalariga e’tibor qaratadi[1]. Olimning ushbu yondashuvi malakali yuridik yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirishda konstitutsiyaviy kafolatlar va advokatlik faoliyatining huquqiy mustaqilligini ta’minlash muhimligini ko’rsatadi.

O’zbekiston Respublikasida malakali yuridik yordam olish huquqi Konstitutsiyaning 29-moddasida mustahkamlangan. Unga ko’ra, har kim malakali yuridik yordam olish huquqiga ega, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bunday yordam davlat hisobidan ko’rsatiladi. Mazkur konstitutsiyaviy kafolatni amalga oshirishda 2023-yil 16-iyunda qabul qilingan “Davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish to’g’risida”gi O’RQ-848-sonli Qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish prinsiplari, undan foydalanish huquqiga ega shaxslar, advokatlarni jalb etish tartibi va moliyalashtirish mexanizmlari belgilangan.

“Yuridik yordam” axborot tizimining joriy etilishi advokatlarni avtomatik tanlash, reyestrni yuritish, shartnomalarni rasmiylashtirish va elektron hujjat almashinuvini ta’minlash imkonini yaratdi. Biroq yuridik yordamning samaradorligi faqat texnik va tashkiliy mexanizmlarga emas, balki advokatning kasbiy tayyorgarligi, mustaqilligi, o’z vaqtida ishga kirishishi va himoya pozitsiyasini puxta shakllantirishiga ham bog’liq. Mazkur sohada yuridik yordam sifatini baholash mezonlarini takomillashtirish, hududlarda advokatlar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish, ularning kasbiy malakasini muntazam rivojlantirish hamda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun yuridik yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan bo’lib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi malakali yuridik yordam ko’rsatishning ilmiy-nazariy asoslarini o’rganish, uning konstitutsiyaviy-huquqiy mohiyatini ochib berish, advokatura institutining o’rnini aniqlash hamda davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish mexanizmlarini tahlil qilishdan iborat. Shu asosda milliy qonunchilik va amaliyotdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ushbu mavzu doirasidagi ilmiy adabiyotlarni o’rganish shuni ko’rsatadiki, malakali yuridik yordam ko’rsatish masalalari asosan konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar, advokatura institutining mustaqilligi, advokatning kasbiy maqomi va davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish mexanizmlari yo’nalishlarida tadqiq etilgan. Jumladan, Alibek Matmurotovning advokat maqomiga ega bo’lish tartibini takomillashtirishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotida advokatura institutining tashkiliy-huquqiy asoslari, advokatlik kasbiga kirish tartibi va kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog’liq masalalar yoritilgan. Muallifning ilmiy izlanishlari advokatlarning kasbiy salohiyatini shakllantirish va advokatura institutini

[1] Otaxonov F. *Advokatning yuridik xizmat xodimi sifatidagi faoliyatiga oid normalar* // O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi rasmiy sayti. – 2026-yil 17-iyun. – URL: https://constitution.uz/oz/pages/advokatlik

rivojlantirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Shuningdek, V. Davlyatovning advokatura va davlat o’rtasidagi munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslariga bag’ishlangan tadqiqotlarida advokatura mustaqilligi, uning davlat organlari bilan munosabatlari hamda o’zini o’zi boshqarish mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu qarashlar malakali yuridik yordam ko’rsatishda advokatning institutsional mustaqilligi muhim omil ekanligini asoslashga xizmat qiladi[2].

Mazkur yo’nalishdagi ilmiy izlanishlar qatorida B. Salomov, V.X. Davlyatov va M.B. Salamova hammuallifligida 2026-yilda nashr etilgan “Advokatura va advokatlik faoliyati” darsligini ham alohida ta’kidlash lozim. Unda advokatura institutining vazifalari, advokatlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari, advokatlarning huquq va majburiyatlari, kasbiy etikasi, faoliyat kafolatlari hamda yuridik yordam ko’rsatish shartnomasi bilan bog’liq masalalar tizimli ravishda yoritilgan.

Muxammad Abdurayimovning “Malakali yuridik yordam ko’rsatishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va uni amalga oshiruvchi subyektlar tarkibi muammolari” nomli maqolasida ushbu huquqning konstitutsiyaviy asoslari, yuridik yordam ko’rsatuvchi subyektlar doirasi hamda “yuridik yordam” va “yuridik xizmat” tushunchalarining o’zaro nisbati tahlil qilingan. Muallif malakali yuridik yordam tushunchasining qonunchilikda aniq belgilanishi va uni amalga oshiruvchi subyektlar tarkibini takomillashtirish zarurligiga e’tibor qaratadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Malakali yuridik yordam ko’rsatish instituti huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, uning asosiy vazifasi shaxslarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Mazkur institutning mohiyati faqat fuqarolarga huquqiy maslahat berish yoki protsessual hujjatlarni tayyorlash bilan cheklanmaydi. U shaxsning huquqiy muammosini aniqlash, tegishli qonunchilik normalarini to’g’ri qo’llash, huquqiy pozitsiyani shakllantirish va zarur hollarda sud hamda boshqa vakolatli organlarda uning manfaatlarini himoya qilishni ham qamrab oladi. Shu sababli malakali yuridik yordamni huquqiy himoyaning kompleks mexanizmi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangan. Ushbu normaning ahamiyati shundaki, yuridik yordam olish imkoniyati shaxsning moddiy holati, ijtimoiy mavqeyi yoki boshqa

belgilaridan qat’i nazar, huquqiy himoyaning muhim kafolati sifatida e’tirof etiladi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordamning davlat hisobidan ko’rsatilishi esa ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ham huquqiy himoyadan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi[3]. Demak, konstitutsiyaviy kafolatning amaliy samarasi nafaqat uning qonunchilikda belgilanishi, balki undan

---

[2] Davlyatov V. Improving the organizational and legal foundations of relations between the state and advocacy // Society and Innovations. – 2023. – Vol. 4, № 2/S. – B. 297–302. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol4-iss2/s-pp297-302. [3] Matmurotov A.R. O’zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo’lish tartibini takomillashtirish masalalari: yuridik fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023

foydalanish uchun zarur tashkiliy va moliyaviy sharoitlarning yaratilishiga ham bog’liq.

Malakali yuridik yordam tushunchasini davlat hisobidan yuridik yordam tushunchasi bilan aynanlashtirmaslik lozim. Malakali yuridik yordam kengroq mazmunga ega bo’lib, advokatlar va qonunchilikda belgilangan boshqa vakolatli subyektlar tomonidan turli huquqiy munosabatlarda ko’rsatiladigan professional yordamni qamrab oladi. Davlat hisobidan yuridik yordam esa qonunda belgilangan shaxslar va shartlar asosida davlat mablag’lari hisobidan taqdim etiladigan yordamning alohida shaklidir. Ushbu ikki tushuncha o’rtasidagi farqni aniq belgilash yuridik yordam ko’rsatish subyektlari, uni moliyalashtirish manbalari va undan foydalanish tartibini to’g’ri anglash uchun muhimdir.

2023-yil 16-iyunda qabul qilingan O’RQ-848-sonli “Davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish to’g’risida”gi Qonun mazkur sohadagi munosabatlarni tartibga solishning muhim huquqiy asosini yaratdi. Qonunda qonuniylik, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarining

ustuvorligi, shaffoflik, xolislik, kasbiy mahorat, advokatlik siriga rioya etish hamda manfaatlar to’qnashuviga yo’l qo’ymaslik kabi prinsiplar belgilangan. Ushbu prinsiplar davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish jarayonining tashkiliy asoslarini mustahkamlash bilan birga, yordam oluvchining huquqlarini himoya qilishda advokat zimmasidagi kasbiy mas’uliyatni ham belgilaydi.

Mazkur qonunning muhim jihatlaridan biri davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatuvchi advokatlar reyestrining shakllantirilishi va advokatlarni jalb etishning elektron mexanizmlari joriy etilganidir. Xususan, “Yuridik yordam” axborot tizimi orqali advokatlarni avtomatik tanlash, ular bilan shartnomalarni rasmiylashtirish, ko’rsatilgan yordamni hisobga olish va tegishli elektron hujjat almashinuvini amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. Bunday tartib advokatlarni tanlashda inson omilini kamaytirish, jarayonning shaffofligini oshirish va yordam ko’rsatish bilan bog’liq tashkiliy jarayonlarni soddalashtirishga xizmat qiladi. Biroq elektron tanlov mexanizmining mavjudligi yuridik yordam sifatini o’z-o’zidan kafolatlamaydi. Buning uchun advokatning ish materiallari bilan yetarlicha tanishishi, himoya yoki vakillik pozitsiyasini mustaqil shakllantirishi va zarur protsessual harakatlarni o’z vaqtida amalga oshirishi talab etiladi.

Malakali yuridik yordam samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri advokatning kasbiy mustaqilligidir. Advokat o’z faoliyatini qonun va kasbiy etika qoidalariga muvofiq, tashqi bosim va noqonuniy aralashuvlarsiz amalga oshirishi lozim. Chunki advokatning huquqiy pozitsiyasi boshqa shaxslar yoki organlarning manfaatlariga emas, balki qonuniy asoslar va ishonch bildirgan shaxsning huquqlarini himoya qilish zaruratiga tayanishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, advokatura mustaqilligini ta’minlash faqat advokatning kasbiy huquqi emas, balki malakali yuridik yordam olish huquqining real amalga oshirilishini ta’minlovchi institutsional kafolat hamdir.

Yuridik yordam sifatini baholash masalasi ham alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Amaliyotda advokatning muayyan protsessual harakatda ishtirok etishi yoki tegishli hujjatni rasmiylashtirishi uning yuridik yordami sifatli bo’lganligini to’liq anglatmaydi.

Yordamning sifati ish holatlarini chuqur o’rganish, dalillarni tahlil qilish, qonunchilik normalarini to’g’ri qo’llash, asoslantirilgan huquqiy pozitsiyani ishlab chiqish va mijozning manfaatlarini samarali himoya qilish kabi mezonlar asosida baholanishi kerak. Shu bilan birga, advokatning qonuniy vositalar bilan amalga oshirgan faoliyatini faqat ishning yakuniy natijasi bilan baholash ham to’g’ri emas. Chunki sud yoki boshqa vakolatli organning qarori advokatning faoliyatiga bog’liq bo’lmagan turli omillar ta’sirida shakllanishi mumkin. Shuning uchun baholashda jarayonning qonuniyligi, kasbiy yondashuv va ko’rsatilgan yordamning mazmuni ustuvor ahamiyatga ega bo’lishi lozim.

Malakali yuridik yordam ko’rsatishda yana bir muhim masala — uning o’z vaqtida taqdim etilishidir. Ayniqsa, jinoyat protsessida shaxsning himoyachi yordamidan foydalanish imkoniyati dastlabki bosqichlardanoq ta’minlanishi muhim. Himoyachining ishga kech jalb qilinishi dalillarni to’plash va tekshirish, protsessual huquqlardan foydalanish hamda himoya strategiyasini shakllantirish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Shu bois yuridik yordam olish huquqini faqat rasmiy ravishda tan olish emas, balki uni amalda va o’z vaqtida ta’minlash zarur.

Hududlar kesimida advokatlik xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biridir. Advokatlar soni va ularning ixtisoslashuvi hududlar bo’yicha bir xil bo’lmasligi mumkin. Bu esa ayrim joylarda fuqarolarning o’zlariga zarur yo’nalishdagi professional yuridik yordamni olish imkoniyatini cheklashi ehtimolini yuzaga keltiradi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun advokatlar reyestrida ularning ixtisoslashuvi, xizmat ko’rsatish hududi va xorijiy tillarni bilish darajasi haqidagi ma’lumotlarni muntazam yangilab borish, shuningdek, yuridik yordamga ehtiyoj yuqori bo’lgan hududlarda advokatlik faoliyatini rag’batlantirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari malakali yuridik yordam ko’rsatish tizimini takomillashtirishda quyidagi yo’nalishlarga ustuvor ahamiyat berish zarurligini ko’rsatadi:

birinchidan, malakali yuridik yordam sifatini baholashning aniq va obyektiv mezonlarini ishlab chiqish, bunda advokatning protsessual harakatlardagi ishtiroki bilan bir qatorda, huquqiy pozitsiyasining asoslanganligi va kasbiy faoliyatining sifatini ham hisobga olish;

ikkinchidan, advokatlarning kasbiy malakasini muntazam oshirish, ularni jinoyat, fuqarolik, ma’muriy va iqtisodiy huquqning alohida yo’nalishlari bo’yicha ixtisoslashtirish;

uchinchidan, advokat mustaqilligi va advokatlik sirini ta’minlash kafolatlarini kuchaytirish, yuridik yordam oluvchi shaxs bilan maxfiy muloqot qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish;

to’rtinchidan, davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatishning elektron mexanizmlarini takomillashtirish, axborot tizimida yuzaga keladigan texnik muammolarni tezkor bartaraf etish va advokatlarni jalb qilish jarayonining uzluksizligini ta’minlash;

beshinchidan, hududlarda advokatlik xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va aholining huquqiy savodxonligini oshirish.

Muhokama natijalari shuni ko’rsatadiki, malakali yuridik yordam ko’rsatish samaradorligi bir nechta o’zaro bog’liq omillar — qonunchilik kafolatlari, advokatning kasbiy mahorati, mustaqilligi, yordamning o’z vaqtida taqdim etilishi va uning sifatini nazorat qilish mexanizmlariga bog’liq. Shu sababli mazkur institutni rivojlantirishda faqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan cheklanmasdan, yuridik yordamning amaliy sifati va undan foydalanish imkoniyatlarini ham izchil yaxshilash talab etiladi. Bunday yondashuv inson huquqlarini samarali himoya qilish, odil sudlovga erishish va jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Malakali yuridik yordam ko’rsatish huquqiy davlatni shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda odil sudlovga erishishning muhim kafolatlaridan biridir.

Ushbu institutning mazmuni shaxsga huquqiy maslahat berish bilangina cheklanmay, uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquqiy muammolarini hal etish va buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan kompleks professional faoliyatni qamrab oladi. Malakali yuridik yordamning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari, advokatura institutining ushbu jarayondagi o'rni hamda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish mexanizmlari o'rganildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasi va "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun mazkur huquqni amalga oshirishning muhim huquqiy asoslari ekanligi aniqlandi.

Malakali yuridik yordamning samaradorligi advokatning kasbiy mahorati, mustaqilligi, ishga o'z vaqtida kirishishi va himoya pozitsiyasini asosli shakllantirishiga bevosita bog'liq. Shu sababli yuridik yordam sifatini faqat advokatning protsessual harakatlarda ishtirok etishi bilan emas, balki uning faoliyati mazmuni va huquqiy himoyaning samaradorligi bilan baholash lozim.

Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimida "Yuridik yordam" axborot tizimining joriy etilishi shaffoflik va tashkiliy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq ushbu tizimning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, advokatlarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish va hududlarda yuridik yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur[4]. Malakali yuridik yordam ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish uchun uning sifat mezonlarini takomillashtirish, advokatura mustaqilligini mustahkamlash, advokatlarning kasbiy malakasini muntazam oshirish va davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishning tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan izchil islohotlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalda ta'minlash hamda odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O’zbekiston, 2023.

2. Davlyatov V. Improving the organizational and legal foundations of relations between the state and advocacy // Society and Innovations. – 2023. – Vol. 4, № 2/S. – B. 297–302. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol4-iss2/s-pp297-302.

3. O’zbekiston Respublikasining “Advokatura to’g’risida”gi Qonuni, 1996-yil 27-dekabr, 349-I-son. – Lex.uz.

4. O’zbekiston Respublikasining “Davlat hisobidan yuridik yordam ko’rsatish to’g’risida”gi Qonuni, 2023-yil 16-iyun, O’RQ-848-son. – Lex.uz.

5. O’zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – 1994-yil 22-sentabr, 2013-XII-son.

6. O’zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to’g’risida”gi Qonuni, 1998-yil 25-dekabr, 721-I-son.

7. Matmurotov A.R. O’zbekiston Respublikasida advokat maqomini olish tartibini takomillashtirish imkoniyatlari. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2024. – 145 b.

8. Matmurotov A.R. O’zbekiston Respublikasida advokat maqomiga ega bo’lish tartibini takomillashtirish masalalari: yuridik fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023.

9. Davlyatov V. Improving the organizational and legal foundations of relations between the state and advocacy // Society and Innovations. – 2023. – Vol. 4,
№ 2/S. – B. 297–302. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol4-iss2/s-pp297-302.

10. Mamayeva M.N. O’zbekistonda advokatlik instituti mustaqilligini ta’minlashning tashkiliy va muammoli jihatlari // Yurisprudensiya. – 2021. – № 6. – B. 124–130.

11. Matmurotov A. O’zbekiston Respublikasida advokat yordamchisi faoliyatini takomillashtirishning imkoniyatlari // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2024. – Vol. 5, № 1. – B. 342–348. – DOI: 10.47689/2181-1415-vol5-iss1-pp342-348.

12. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT Bosh Assambleyasining 1948-yil 10-dekabrdagi 217 A (III)-son rezolyutsiyasi.

13. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt. – BMT, 1966-yil 16-dekabr.

14. BMTning Advokatlar roliga oid asosiy prinsiplari. – Gavana, 1990-yil 27-avgust – 7-sentabr.

15. United Nations Principles and Guidelines on Access to Legal Aid in Criminal Justice Systems. – UN General Assembly Resolution A/RES/67/187. – 2012. Digital Library

16. Human Rights Committee. General Comment No. 32: Article 14, Right to Equality before Courts and Tribunals and to a Fair Trial. – United Nations, 2007.